



Ikromjon Kuzikulov

Namangan davlat universiteti
“Tarix” kafedrası dotsenti tarix
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

E:mail: nov08031971@gmail.com

BUXORO – QO‘QON URUHLARI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605917>

Annotatsiya. Maqolada Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, Nasrulloxon hamda Muhammad Alixon davridagi dushmanlik kayfiyati, amirning Qo‘qon xonligiga hujumlari, ularning oqibatlarini, Sheralixon boshchiligidagi qo‘qonliklarning ozodlik uchun kurashlari haqidagi muhim ma‘lumotlar aks etgan.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Qo‘qon xonligi, Nasrulloxon, Muhammad Alixon, urush, Peshagar, jang, qamal, Sheralixon, taxt.

Kirish. Qo‘qon xonligi Buxoro hududida tashkil topdi. Buxoro Qo‘qon xonligini mustaqil davlat sifatida tan olgan bo‘lsa-da [7;386.], o‘zaro munosabatlari yaxshi bo‘lmagan. Masalan, Abdurahimbiy davrida Qo‘qon qo‘shinlari Samarqandga bosqinchilik bilan borgan bo‘lsa, Olimxon Toshkent, Turkiston va shaharlarga tutash bo‘lgan xududlarni bosib olgan edi. Bu kabi bosqinchilik yurishlari Muhammad Alixon davrida ham davom etib, Qorateginni bosib olindi, Ko‘lob, Xisor, Badaxshon, Darvoz va Matcho bo‘ysundirildi [1;19c.].

Amir Haydar davrida Muhammad Rahimbek otaliq va O‘ratepa voqealari alohida xikoya: “Shu vaqt Xo‘qand dorulussaltanatiga ketma-ket xabar keldiki, amir Haydar Buxoriy tarafidan Muhammad Rahimbek otaliq ibn Xudoyorbek yuzkim, O‘ratepa ulug‘zodalaridan bo‘lib, ishbilarmon va mo‘tabar bir kishi edi, kata lashkar va asbobu qurollar bilan Zom, Urmitan (O‘rmiton) va Peshog‘ar (Peshag‘or) hukumatini berib, O‘ratepa va uning muzofotini bosib olish uchun jo‘natibdi. Agarda O‘ratepani barcha tobe joylari bilan farg‘onaliklar qo‘lidan qaytarib olsa, bu muzofot ham Muhammad Rahimbek otaliqqa berilishini va’da bergan ekan” [8;219.].

Asosiy qism. Nasrulloxon Buxoro taxtiga kelishi bilan Buxoro - Qo‘qon munosabatlari yanada keskinlashdi. Sodir bo‘layotgan voqealar tez orada ikki davlat o‘rtasida to‘qnashuv yuz berishidan darak berardi. Xudoyorxon zodaning yozishicha, Buxoro amiri 1839-yil oktyabrda Peshag‘or qal‘asini bosib olgach, Farg‘ona yurishiga astoydil tayyorgarlik boshlangan. Qo‘shin tayyorgarligi, harbiy safar uchun oziq-ovqat zahirasi tayyorlashga alohida e‘tibor berilib, tez-tez maslahat yig‘inlari o‘tkazilgan. Xatto, Muhammad Alixonni g‘aflatda qoldirish maqsadida saroy a‘yonlariga shunday topshiriq bergan: “...Buxoro amaldorlari va ma‘mur sarkorlariga Hisor, Ko‘lob va Ko‘xiston xududlariga qo‘shin tortilishi munosabati bilan lashkariyaning olti oylik zaxiralari, o‘q-dori va yem-xashak zaxirasini tayyorlash uchun farmon berilsin tokim, bu xabar hamma joyga tarqalib, dushman, ya’ni Farg‘ona xoni ham Buxoro askarining Farg‘onaga yurishidan xabarsiz va g‘aflatda qolsin” [8;2796.].

Nasrulloxonning Qo‘qonga yurishi uchun sabab bor, faqat bahona kerak edi. Ko‘p o‘tmay, Qo‘qonda shunday voqea yuz berdi. Madalixon tashqi siyosatda bir qator muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa-da, mamlakatda xondan norozi guruhlar harakati pasaymadi. G‘ayridinlarga qarshi kurashda “g‘ozi” unvonini olgan Madalixonning o‘gay onasi Xonposhsha oyimga uylanishi haqidagi xabar butun xonlikda ham uning obro‘sini tushirib yuborgan. Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyat yanada og‘irlashgan. Qo‘qonga yurish uchun qulay paytni kutib turgan Nasrulloxonga “Xonposhshaoyim voqeasi” juda qo‘l keldi.

Tarixiy manbalarda Qo‘qonda xon boshchiligida shariat qonunlari buzilayotganligi haqida xat yozib, shariat qonunlarini tiklanishi uchun Nasrulloxondan yordam so‘ralganligi haqidagi ma‘lumotlar uchraydi. Masalan, “Muntaxab at-tavorix” asarida ushbu xat Shofe’i eshon xuzurida Sulton Mahmud tomonidan bitilganligi yozilgan [6;6456.]. Nasrulloxon esa o‘z elchilari orqali Madalixonga maktub yo‘llab, uni o‘gay onasiga uylanganlikda ayblagan va haqorat qilgan, shundan so‘ng Madalixon Buxoroga yurish boshlagan.

Qo‘qon va Buxoro qo‘shinlari o‘rtasidagi dastlabki to‘qnashuv Peshag‘ar qo‘rg‘onida bo‘lib o‘tgan. Gadoybiy dodxoh Buxoro avangardini tor-mor keltirgan bo‘lsa-da, ertasi kungi hujumga dosh bera olmay, Peshag‘arni tashlab chiqishga majbur bo‘lgan [3;138c.]. Ma‘lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, xonning qo‘shinni tark etishi, Peshag‘ardagi mag‘lubiyat Qo‘qon xonligi qo‘shinida parokandalikni yuzaga keltirgan. Amir qo‘shinlari ketma-ket Yom, Zomin, O‘ratepa xududlarini bosib oldi, tez orada Xo‘jand, Toshkent so‘ng Konibodom, Mahram va Beshariq egallandi.

Xodoyorxon zodaning ma‘lumot berishicha, asosiy janglar arafasida Qo‘qon xoni og‘ir xastalikka yo‘liqqan. Shuning uchun u urush maydonini tark etib, Xo‘jandga, so‘ng u joydan poytaxtga ketishga majbur bo‘lgan [8;280-2816.]. Janglardagi mag‘lubiyatlarda esa, Muhammadsharif otaliq kabi lashkarboshilarni ayblagan. Muhammadsharif otaliq Sharqiy Turkistonda Xaqquli mingboshi bilan qilich yanang‘ochlab dushman bilan kurashgan bo‘lsa, Gadoybiy parvonach og‘ir janglarda sinalgan sodiq, o‘z ishining ustasi edi. Yom qal’asini ximoya qilgan Isoqbek parvonachi Nasrulloxonning amakivachchasi bo‘lib, agar mag‘lub bo‘lsa qatl etilishini bilardi. Shuning uchun mag‘lubiyatda lashkarboshilarni ayblash noto‘g‘ri. Aslida, xon strategik tashabbusni qo‘ldan boy bergan.

Nasrulloxonning yurishlari zafarli bo‘lsa-da, amir qo‘shinida ahvol yaxshi bo‘lmay, qo‘shinda norozilik sezila boshlagan edi [7;456.]. Shuning uchun ham amir, ham xon uchun eng yaxshi echim – sulh tuzish edi. Amir qo‘lga kiritilgan yerlarni uning nomidan boshqarish uchun Xo‘jandda Sulton Mahmudni qoldirib, Buxoroga qaytgan.

Bo‘lib o‘tgan voqealar, ayniqsa, Sulton Mahmud va Madalixon o‘rtasida murosaning yo‘qligi minglarning kelajagi uchun to‘g‘anoq edi. Buni o‘z vaqtida tushunib yetgan Nodirabegim o‘g‘illarini yarashtirishni maqsad qildi va shunga erishdi. Sulton Mahmudning Xo‘jandni tark etib, Toshkentga ketganligidan xabar topgan Nasrulloxon g‘azablanib, yangi yurishga tayyorganlik ko‘ra boshlaydi.

1842-yil 2-aprelda Nasrulloxon 18 minglik qo‘shin bilan Qo‘qonga navbatdagi yurishini boshladi. Madalixon esa bu xabarni eshitgach Gadoybiy dodxoh boshchiligidagi qo‘shinni Xo‘jandni mudofaa qilish uchun jo‘natdi. Buxoro va Qo‘qon qo‘shinlari o‘rtasidagi asosiy jang Xo‘jand yaqinidagi Tangida yuz bergan [3;142c.]. Jang qo‘qonliklarning to‘la mag‘lubiyati bilan tugadi. Ushbu jangdan so‘ng Buxoro qo‘shinlari katta qarshilikka uchramay, tez orada Beshariqqa yetib kelgan. Urushni boy berilganligini tushungan Muhammad Alixon o‘g‘li Muhammad Amin boshchiligidagi Lashkar qushbegi, Mo‘min inoq, Sulaymon xojani Nasrulloxonning oldiga sulh tuzishni iltimos qilib jo‘natgan [3;142c.]. Ammo, amirni sulh qoniqtirmas, Qo‘qon xonligining so‘zsiz taslim bo‘lishini xohlardi. Mirza Olim Maxdum Hojining ma‘lumot berishicha, amir qo‘shinlari yurishda davom etib Sariqsuv, Naymancha orqali janglar bilan poytaxtga kirib borgan [4;966.]. Nasrulloxon xon va uming yaqin qarindoshlarini qatl etishga farmon bergan. Farmonga ko‘ra, Muhammad Alixon, ukasi Sulton Mahmud, o‘g‘illari Muhammad Amin, Muzaffar, Nodirabegim va yana ikki xotini qatl qilingan [7;496.].

Xonlikni boshqarish uchun Ibrohim dodxohni noib etib tayinlab, uning ixtiyoriga 6000 kishilik qo‘shin qoldirgan. Qo‘qonlik ulamolar va umarolar Muhammad Alixon taxtdan tushirilib, o‘rniga boshqa odam o‘tiradi va shu bilan masala hal, deb o‘ylashgan edi. Ammo ular kutganday bo‘lmadi. Buxoroliklarning yurishi davomida amirning buyrug‘i bilan ko‘p odam o‘ldirilgan, talon-taroj qilingan, ko‘chirilgan. Ibrohim Xayol esa boshqaruvga qo‘qonliklarni yaqinlashtirmadi.

Ibrohimning talonchilik siyosati javobsiz qolmadi: shaharda norozilik harakati boshlanib, qo‘zg‘olonga aylanib ketdi. Qo‘qon taxtiga davogar

bo'lgan Sheralibek qirg'izlar, qipchoqlar va o'zbeklarning qo'llab-quvvatlashi bilan tez orada To'raqo'rg'onga kirib keldi. Bu paytda xon qo'shinlarining yetib kelishini kutmagan qo'zg'olonchilarning Buxoro askarlari bilan shahardagi to'qnashuvi natijasida uch ming buxorolik askarlar o'ldirilgan. Qo'qonni qo'ldan chiqarib, Buxoroga qochib kelgan Ibrohim va uning ukasi Isoq Nasrulloxonning buyrug'i bilan qatl etilib, mulklari musodara qilindi.

Amir yana Qo'qonga yurishga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Qo'qonliklar amirning yangi yurishiga tezlik bilan tayyorgarlik ko'rib, qisqa muddat ichida – 18 kunda poytaxt atrofida himoya devorini barpo qilganlar. Vaziyat xavfli tus olgan edi: g'arbdan amir o'z qo'shinlari bilan, Toshkent tarafdin esa uning ittifoqchilari bo'lgan toshkentliklar qo'shin tortishgan. Natijada, Sheralixon o'z qo'shinini ikki frontga joylashtirishga majbur bo'lgan. Konibodom yaqinida Buxoro, Sirdaryo kechuvida esa Toshkent qo'shlari bilan yuz bergan dastlabki to'qnashuvlarning ikkalasi ham qo'qonliklarning mag'lubiyatlari bilan yakunlandi [6;6636., 2;31c]. Buxoroliklar xonlik poytaxtini qamal qildilar. R. Nabiyevning ma'lumot berishicha, qo'qonliklar Nasrulloxon qo'shinining 9 ta xujumlarini qaytarishgan. Poytaxt devorlari atrofidagi janglar 40 kun davom etgan.

Qo'qonliklarning amirga qarshi urishi oldingilaridan farq qilgan. Madalixonning xazinasini to'la bo'lishiga qaramasdan, qo'shinda birlik yo'q edi. Endi esa xazina bo'sh bo'lsa-da, butun Qo'qon aholisi millati, tabaqasidan qat'iy nazar, Sheralixon boshchiligida dushmanga qarshi birlashgan. Islom dini vakillari, ayniqsa, hoji va eshonlar ham xonni qo'llab-quvvatlagan. Masalan, Azimxoja eshon Marg'inoniy Farg'ona ulamolariga murojaat bilan chiqqan va o'z mablag'i evaziga 2000 kishilak jangchilarni to'la qurollantirib, Qo'qon himoyasiga jo'nagan. Shuningdek, ulamolar "buxoroliklarni o'ldirgan odam g'oziydir", deb e'lon qilganlar. Bu haqda Mirzaolim Mushrif shunday yozgan edi: "Ey musulmonlar, ogoh va dono bo'linglarkim, shariat hukmi, rivoyati ulamo shuldirkim, bul mang'iti mufsidni o'ldirg'on g'ozi, o'lg'on shahidi a'lo. Ey birodarlar, mujdahidlar

rivoyat mazmuni shuldir, bellaringni mahkam bog‘lab, taxti dilda jaddi-jahd qilinglar, savobi azim topasizlar” [5;266.].

Amir qo‘shinlari dastlabki janglarda muvaffaqiyatlarga erishgan bo‘lsa-da, keyingi harakatlari to‘xtatilgan: poytaxtni egallashning imkoniyati bo‘lmagan. Buning bir qator sabablari bor edi: xonlikning barcha aholisi tashqi dushmanga qarshi yagona ittifoqqa birlashgan edi. Turli tabaqa vakillari: oddiy dehqonlar, hunarmandlardan to ulamo va umarogacha, shuningdek, o‘zbeklar, qipchoqlar, qirg‘izlar birlashib, bir yoqadan bosh chiqardilar. Buning ustiga Qo‘qon aholisi urushlardan va ikki oylik istibdoddan achchiq xulosa chiqargan edi. Yagona ittifoqqa birlashgan aholi va davlat boshqaruvida Sheralixon boshchiligida markazlashgan hokimiyat shakllantirildi.

O‘sha davrda Buxoroning Xiva bilan chegarasi ham notinch edi. Olloqulixon ikki oy mobaynida Buxoroga qarashli shahar va qishloqlarga bir necha marotaba yurish qilib, aholini talagan. Buxoro poytaxtiga hujum ham ehtimoldan holi emas edi. Amir vaziyatdan xulosa chiqarib, Qo‘qondan voz kechib, ortga qaytishga majbur bo‘lgan. Bu haqda manbalarda Xiva xonining Buxoroga xujumi Sheralixonning Xivaga jo‘natgan xati bilan bog‘liqligi haqidagi ma‘lumot mavjud [2;31c.]. Og‘ir urushlardan so‘ng Qo‘qon avvalgi chegaralarini tiklashga erishdi.

Xulosa va takliflar. Buxoro amirlari bilan Qo‘qon xonlari o‘rtasida do‘stona munosabatdan ko‘ra, dushmanlik kayfiyati ustun bo‘lgan. Abdurahimbiyning yurishlari, Nasrulloxonning Qo‘qonni bosib olishi xalqqa ko‘p jabr etkazgan. Bu kabi voqealar davlarchilik tizimiga ham salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Ularning o‘zaro dushmanlik munosabatlaridan Rossiya kabi imperialistik davlatlar o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishi mumkin edi va shunday bo‘ldi. Hozir ham ahvol yaxshi bo‘lsada muammolar bor: Markaziy Osiyo besh davlatga bo‘lingan, XIX asrda bo‘lganidek, ayrim yirik imperiyalarning siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy ekspansiyasi kuchayib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxari:

1. Бейсенбиев Т. К. “Тарихи Шахрухи” – как исторический источник. – Алма-Ата, 1987.
2. Набиев Р. Из истории Кокандского ханства (Феодальное хозяйство Худаяр-хана). – Ташкент, 1973.
3. Наливкин В. Краткая история Кокандского ханства. – Казань, 1886.
4. Мирза Олим Махдум Ҳожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент, 2009.
5. Мирзо Олим Мушриф. Ансоб ус-салотин ва таворих ул-ҳавоқин. – Тошкент, 1995.
6. Муҳаммад Ҳакимхон Тўра. Мунтахаб ат-таворих. – Тошкент: Янги аср авлоди. 2010.
7. Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. – Наманган, 1994.
8. Худоёрхонзода. Анжум ат-таворих (Тарих юлдузлари). – Тошкент: Fan va texnologiya, 2014.

BUKHARA – KOKAN WARS.

Abstract. In this article the relationship between the Bukhara Emirate and the Kokand Khanate, the hostility during the reign of Nasrullakhan and Muhammad Alikhan, the emir's attacks on the Kokand Khanate, their consequences, and the struggle of the Kokand people for freedom under the leadership of Sheralikhan are discussed.

Keywords: Bukhara Emirate, Kokand Khanate, Nasrullakhan, Muhammad Alikhan, war, Peshagar, battle, siege, Sheralikhan, throne.

БУХАРСКО – КОКАНДСКИЕ ВОЙНЫ.

Аннотация. В статье рассматриваются взаимоотношения Бухарского эмирата и Кокандского ханства, вражда в период правления Насрулла-хана и Мухаммада Али-хана, нападения эмира на Кокандское ханство, их последствия, а также борьба кокандцев за свободу под руководством Шерали-хана.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Кокандское ханство, Насрулла-хан, Мухаммед Али-хан, война, Пешагар, битва, осада, Шерали-хан, трон.